



FARG‘ONA VILOYATI QO‘SHTEPA TUMAN HOKIMINING QARORI

2022 - yil 7 - may

116-11-157-Q/22

Qo‘shtepa tuman hokimligi

Auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi 71-sonli qarorining ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Qo‘shtepa tumani hududida joylashgan ilovada ko‘rsatilgan yer maydonlari zahira yerlari fondida ekanligi, “Yerelektron” ATT dasturi orqali tadbirkorlik faoliyati uchun auksion savdolariga chiqarish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida elektron dastur orqali vakolatli tashkilotlarning kelishuvi hamda muhokamadan o‘tkazilganligi inobatga olinsin.

2. Qo‘shtepa tumani hududida joylashgan ilovada qayd etilgan bo‘sh yer uchastkalari Qo‘shtepa tuman hokimligi nomiga mulk huquqi asosida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin. Ilovada ko‘rsatilgan yer uchastkalari tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun belgilangan tartibda elektron auksionda realizatsiya qilish uchun qo‘yilsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari B.Qurbonov, Kadastr agentligi tuman bo‘limi (R.Ahmadaliyev), Davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali

(U.Abdullaxojiev) bilan birgalikda ushbu qarorga muvofiq Qo'shtepa tuman hokimligining yer uchastkalariga bo'lgan mulk huquqini belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlasin.

4. Tuman hokimining o'rinbosari B.Qurbonov, Davlat soliq inspeksiyasi (Z.Mirzayev), Kadastr agentligi tuman bo'limi (R.Ahmadaliev), Davlat Kadastrlar palatasi tuman filiali (U.Abdullaxojiev) Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14- fevraldagi 71-sonli qarori 2-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 24-bandiga muvofiq yer uchastkasi mulk huquqi bilan auksionga chiqarilganda Davlat aktivlarini boshqarish agentligining hududiy boshqarmasi baholash tashkiloti tomonidan tayyorlangan hisobot va ekspertiza xulosasi asosida «Yerelektron» ATTga yer uchastkasining boshlang'ich narxini kiritishi, yer uchastkasi ijara huquqi bilan auksionga chiqarilganda «Yerelektron» ATT avtomatik ravishda tegishli tuman (shahar) uchun belgilangan yer uchastkasiga ijara huquqining minimal qiymati asosida auksionga chiqarilayotgan yer uchastkasini ijaraga olish huquqining boshlang'ich qiymatini belgilanishini inobatga olsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari B.Qurbonov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



I.V.Novikov

Qo'shtepa tuman hokimining
2022 yil 7 maydagi
116-11-157-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Qo'shtepa tumani hududida joylashgan bo'sh yer uchastkalari

№	Manzili	Yer uchastkasini "YERELEKTRON" tizimdagi raqam	Kadastr raqam	Maydoni (gektar)
1	Qo'shtepa tumani Loyson mahallasi A.Yassaviy massivi	P173020607364-8	15:08:26:01:01:0022	0,0223
2	Qo'shtepa tumani Loyson mahallasi A.Yassaviy massivi	P173020607364-7	15:08:26:01:01:0023	0,0223
3	Qo'shtepa tumani Loyson mahallasi A.Yassaviy massivi	P173020607364-6	15:08:26:01:01:0024	0,0223
4	Qo'shtepa tumani Loyson mahallasi A.Yassaviy massivi	P173020607364-5	15:08:26:01:01:0025	0,0223
5	Qo'shtepa tumani Loyson mahallasi A.Yassaviy massivi	P173020607364-4	15:08:26:01:01:0028	0,0223
6	Qo'shtepa tumani Loyson mahallasi A.Yassaviy massivi	P173020607364-3	15:08:26:01:01:0029	0,0150
7	Qo'shtepa tumani Loyson mahallasi A.Yassaviy massivi	P173020607364-2	15:08:26:01:01:0027	0,0147
8	Qo'shtepa tumani Loyson mahallasi A.Yassaviy massivi	P173020607364-1	15:08:26:01:01:0026	0,0150
9	Qo'shtepa tumani Qo'rg'oncha mahallasi hududi	P173020607370-1	15:08:34:01:05:2604	0,0037